

SHEVALARNING MOHIYATI**Sattorov Ozoda**

1-BT-24 guruh talabasi.

Xaqqulova D

Imiy rahbar.

Osiyo xalqaro universiteti, Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14549016>

Annotatsiya. Ushbu maqolada shevashunoslik va shevalar, ularning mohiyati va yurtimizdagi hududlar shevalari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so ‘zlar: sheva, shevashunoslik, lahja, qarluq, qipchoq, o‘g‘uz, hudud, singarmonizm.

THE ESSENCE OF DIALECTS

Abstract. This article reflects on dialects and dialects, their essence and dialects of the regions of our country.

Keywords: dialect, dialectology, dialect, Karluk, Kipchak, Oghuz, region, synharmonism.

СУЩНОСТЬ ДИАЛЕКТОВ

Аннотация. В этой статье рассматриваются диалектология и диалекты, их сущность и диалекты территорий в нашей стране.

Ключевые слова: диалект, диалектология, говор, карлук, кыпчак, огуз, регион, сингармонизм.

Har bir hududning o‘ziga xos shevasi bor. Shevalar o‘zgachaligi bilan kishining diqqatini tortadi. Sheva bu (forscha harakat tarzi, tarz usul)-umumxalq tilining ma'lum hududga xos tarmogi, mahalliy tilni anglatuvchi tushunchani anglatadi. Sheva boshqa sheva tizimlaridan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi. Bular: fonetik, grammatik, sóz yasalishi va lug'aviy belgilariga kóra farqlanadi va lisoniy tizim sifatida mavjud boladi. Sheva ma'lum hududda yashab, shu hudud egasi uchun tushunarli bo‘lgan so‘zlarga aytildi. Lahja esa bir-biriga yaqin bo‘lgan shevalar yig‘indisiga aytildi. O‘zbek adabiy tilida 3ta lahja mavjuddir. Bular: qarluq lahjası, qipchoq lahjası, o‘g‘uz lahjası.

Qipchoq lahjasining mangit yoki saroy shevasi, qarluq lahjasiga mansub marǵilon shevasi va boshqa ózbek tilining eng kichik hududiy kórinishlari. Alovida shevalar birikib lahjani tashkil qiladi.

Adabiy til

Sheva

Ona	Buxoro nana
	Navoiy aya
	Toshkent oyi/opa
	Namangan aba
	Xorazm opa/opo

XX asrning boshlariga kelib, ayniqsa, 1917-yildan songgi davrda ózbek shevalarini órganish va uni guruhlashdirish býicha quyidagi olimlarning ishlari ahamiyatlidir: Yudaxin, Borovkov, G'ozzi Olim Yunusov kabilarning ishlari e'tirofga ega. Olimlar quyidagicha tasnif qilishgan.

K.K. Yudaxinning 1-tasnifi:

1. Asl turkiy tovush tarkibi va singarmonizm saqlangan ózbek shevalari;
2. O'z tovush tarkibini qisman o'zgartirgan, singarmonizmni yo'qotgan shevalar;
- 3 Eron tillari oilasiga mansub unlilar tarkibini saqlagan shevalar;
4. O'zbek va tojik tillarida sózlashadigan tojik tillari (Samarqand, Buxoro).

Adabiy/sheva	Leksik shakl	Grammatik shakl
Adabiy til	boryapman	-yap-man
Buxoro, Qashqadaryo	Boromman, borommiz	
Navoiy, Farg'on'a	Boryappan, boryappiz	
Xorazm	borvotirman	
Toshkent	borvommiz	

K.K. Yudaxinning 2-tavsifida quyidagi shevalarni keltirib o'tadi:

- 1 Toshkent shevasi
- 2 Fargona shevasi
- 3 Qipchoq shevasi
- 4 Xiva (Xiva-óguz) shevasi
5. Shimoliy ózbek shevasi

Gozi Olim Yunusov shevalarni quyidagicha tasnifi:

1. Ózbek qipchoq lahjasi-bu lahjaga Ózbekistonning turli hududlarida yashovchi shevalarning hammasi kiradi. Bu lahja óz ichida 4 guruhga bólindi.

1.Qirq 2.Jazoyir-laqay 3.Qipchoq 4.Gurlan.

2 Turk-Barlos lahjasi:

Barcha shahar tipidagi shevalar kiradi. Til xususiyatlarini hisobga olib 4 guruhga bólindi.

1.Sayram-Chimkent shevasi; 2.Toshkent-xos shevasi; 3.Andijon shevasi; 4.Namangan shevasi

3 Xiva-Urganch yoki óguz lahjası. Xiva Urganchda yashovchi yoki óguz lahjasiga mansub shevalar kiradi.

O lashgan shevalar-bu guruhga shahar va ular atrofidagi tuman shevalarini kiritdi:
Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon, Qóqon, Margílon, Qarshi, Jizzax.

2 A lshgan shevalar: singarmonizm saqlagan shevalar kiritildi.

1)y lovchi shevalar

2)l lovchi shevalar.

Reshetov esa lahjalarni quyidagicha tasniflaydi.

1Qarluq -chigil -uyǵur lahjasi: hozirgi qardosh uyǵur tiliga yaqin bólub, tojik tili bilan yaqin munosabatda bólgan.

2Qipchoq lahjasi: qardosh qozoq va qoraqalpoq tillari bilan yaqin.

3 Óǵuz lahjasi: qardosh turkman tili bilan yaqin.

Y.D Polivanov ózbek shevalarini eronlashish nuqtai nazaridan ya'ni ba'zi ózbek shevalarining tiklanish jarayonida tojik tilining ishtirokini hisobga olib, shevalarni quyidagicha tasnif qildi:

1 Eronlashmagan shevalar

2 Eronlashgan shevalar

1Eronlashish elementlari mavjud shevalar: Toshkent, Qóqon-Margílon, Andijon-Shaxrihon tipidagi shevalar.

2Maksimal eronlashgan shevalar: Buxoro, Samarqand, Xójand, Óratepa tipidagi shevalar.

3Eronlashmagan shevalar: Farǵonaning singarmonizmli qishloq shevalarini (Saroy, Andijon, Yólguzar, Mankent) ózbek-qipchoq (j-lovchi lahjasidagi shevalar.

Qarluq - chigil – uyg’ur lahjasida unli tovush uyg’unligi yoki ohangdoshlik hodisasi uchramaydi. Shuning uchun ham ulardagi unlilar miqdori ko’p emas, unlilar fonemasining soni 6-8 dan oshmaydi. Jumladan, Toshkent shevalarida oltita (‘, e, u, o), Namangan shevasida sakkizta (‘, a, o, u, e, ‘), Marg’ilon shevasida ettita unli (‘, a, o, u, e) fonema bor. Bu shevadagi unli fonemalar sifat jihatidan farqlanadi. o’zlariga xos xususiyatlar alohida qayd etiladi. Buxoro, Urgut, Qarshi, Xo’jand, Chust shevalarining unlilar tarkibida ham oltitadan unli fonema bo’lib, ular miqdori jihatdan Toshkent va Samarqand shevalardagi holatga tengdir. Vodiy va Jizzax shevalari, Toshkent atrofidagi ayrim (Parkent, Piskent, Chinoz) va Qarnob shevalarida unlilar Toshkent shevasidagi singaridir, Qo’qon va Marg’ilon shevalarida esa unli fonemalarning soni yuqoridan keltirilgan shevalardan bitta ortiqdir. Unda a fonemasi ham ishlatiladi.

Yuqorida qayd etilgan shahar shevalaridagi unlilarning ko’plari g’arbiy Samarqand qarluq – chigil – uyg’ur shevalarida ham qo’llaniladi, ba’zilarida esa uchramaydi.

A) Bu guruh shevalaridagi fonemalarining qo'llanilishi Toshkent shevasidagi fonemalarning qo'llanilishiga mos keladi;

B) Yuqoridagi guruhni tashkil etuvhi shevalardagi ikki unli fonema o'mnida Marg'ilon shevasida uch fonema (a) qo'llaniladi;

V) ', e, o, u fonemalari yuqoridagi shevalarning hammasida ham bir xil ishlatiladi.

G) Namangan shevasidagi .. unli fonemasi g'arbiy Samarqand, Toshkent, Marg'ilon shevalarida uchramaydi.

Qipchoq shevalarida 10 ta unli fonema qo'llaniladi:

a - e, o - e, u - u, iu - i, s - e. Bu shevalarda unlilar ohangdoshligi hodisasi saqlangan, lab va qisman ohangdoshligi mavjud. Shunga ko'ra, unli fonemalarning sakkiztasi juft holda qo'llaniladi. Bu o'zbek tilining hamma qipchoq shevalari uchun umumiyl xususiyatga ega. Bunda ularning ba'zilarida hali s fonemasining to'la shakllanib etmaganligini qayd etish mumkin.

Natijada s va a unlilarning almashinib qo'llanish holatlari ko'zga tashlanib turadi.

O'zbek adabiy tili va xalq shevalarida quyidagi grammatik usullar va so'z yasalishlar bilan geminatsiya hodisasi yuzaga keladi:

A) sifatning kuchaytiruv shakli orqali: ok – oppok, sog-sog – soppa sog, (ad. imlo); ak-ak – appak, sag-sag – sappa –sag (qipchoq) kabi;

B) juft so'zlarning yasalishi natijasida: bitta yarimta, opten-soppon, oppon-s`ppon, shartta-shurtta – shertte-shurte (qorluq- chigil- uyg'ur);

V) tasviriy so'zlar vositasida: ukki, kakku, pirra, chippa-chippe, ushshaymok (ad.imlo); ikki, kekki, pirre, chippe-chippe, ishsheyymok (qipchoq) va hokazo.

Qo'sh undosh ma'noni farqlash xususiyatining mavjudligini alohida qayd etishga to'g'ri keladi. Masalan, qorluq-chigil- uyg'ur shevalarida: qoteq (kishilar iste'mol qiladigan sut maxsuloti), qatiq/qott'q (yumshoqning aksi, qattiq), kalla (organizmning bir qismi, kele, jamlovchi son qo'shimchasi, ikkalamiz), sallox sifat, ism, solox, Xayriddin Salox, oppe sifatning kuchaytiruvchi shakli oppa-oydin (qarindoshlik atamasi) va boshqalar. Shunday qilib, qo'sh undoshlarning so'z o'rtaida keladi. Ular so'zlarning oxirida ham o'zbek adabiy tili va shevalarida uchramaydi.

REFERENCES

1. Xaqqulova, D. (2024). ADABIYOTSHUNOS OLIM ABDURAHMON GO'ZALNING TADQIQOTLARI XUSUSIDA. *PEDAGOG*, 7(5), 548-555.

2. Xaqqulova, D. (2024). ABDURAHMON GO'ZAL-YASSAVIYSHUNOS. *PEDAGOG*, 7(6), 8-15.
3. XAQQULOVA, D. (2023). BADIYLIK MASALALARI TADQIQIDA OLIM MAHORATI. *Наука и технология в современном мире*, 2(5), 5-11.
4. Akbarovna, I. S. (2024). MASTERING THE BASICS OF PEDAGOGICAL SKILLS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 882-887.
5. Akbarovna, I. S. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ ЧЕРЕЗ ПЛАН СПОРТИВНЫХ ИГР. *WORLD OF SCIENCE*, 7(5), 521-528.
6. Akbarovna, I. S. (2024). SPORTCHILAR FAOLIYATINI O'RGANISHNING UMUMIY PSIXOLOGIK USULLARI. *WORLD OF SCIENCE*, 7(5), 536-543.
7. Akbarovna, I. S. (2024). PROCEDURE FOR CREATING PSYCHOLOGICAL TEST PROGRAMS. *PEDAGOG*, 7(6), 153-159.
8. Икромова, С. (2024). ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 925-932.
9. Икромова, С. А. (2024). ОСВОЕНИЕ ОСНОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 894-899.
10. Икромова, С. А. (2024). ВАЖНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 906-911.
11. Икромова, С. А. (2023). O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET HOSIL BO'LISHINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI: Ikromova Sitora Akbarovna Osiyo xalqaro universiteti assistenti. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (10), 333-336.
12. Ikromova, S., & Ziyodullayeva, M. (2024). DEVIANT XULQ-ATVOR. *Modern Science and Research*, 3(11), 576-579.
13. Икромова, С., & Джумаева, Ф. (2024). ОРИЕНТИРЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И В ДРУГИХ СТРАНАХ. *Modern Science and Research*, 3(11), 540-546.
14. Икромова, С. А. (2024). ОСНОВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ. *PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMIY JURNALI*, 2(4), 47-53.
15. Fatullayeva, M., & Raxmatova, G. (2024). TANLOVLARNING MAZMUNI VA ULARNI TASHKIL QILISH USULLARI. *Modern Science and Research*, 3(11), 551-556.

16. O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLAR O'QITISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI M.M Fattullayeva - PEDAGOG, 2024
17. O'QUVCHILARNI BADIY USLUBDAGI MATNLARNI YARATISHGA O'RGATISH M.M Fattullayeva - PEDAGOG, 2024
18. Ikromova, S., & Ziyodullayeva, M. (2024). DEVIANT XULQ-ATVOR. Modern Science and Research, 3(11), 576-579.
19. Икромова, С., & Джумаева, Ф. (2024). ОРИЕНТИРЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И В ДРУГИХ СТРАНАХ. Modern Science and Research, 3(11), 540-546.
20. Икромова, С. А. (2024). ОСНОВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ. PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 47-53.